


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	



HUDUDNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Raximov Jo'rabek Raximovich

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishning nazariy ahamiyati yoritilgan. Tabiiy-resurs salohiyati, demografik tarkib, tarmoq ixtisoslashuvi, infratuzilma, institutsional muhit va ekologik cheklovlarning hududiy boshqaruv qarorlariga ta'siri tizimlashtirilgan. Hududlarni boshqaruv ehtiyojlariga ko'ra farqlash, rivojlanish dasturlarini mahalliy imkoniyatlarga moslashtirish hamda monitoring natijalari asosida qarorlarni takomillashtirib borish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, mintaqaviy xususiyat, hududiy boshqaruv, differensial yondashuv, hududiy siyosat, infratuzilma, institutsional muhit, barqaror rivojlanish.

Abstract. The article explains the theoretical importance of considering regional characteristics in managing the socio-economic development of a territory. It systematises the influence of natural resources, demographic structure, sectoral specialisation, infrastructure, institutional conditions and environmental constraints on territorial management decisions. The paper substantiates the differentiation of territories by management needs, the adaptation of development programmes to local capacities, and the revision of decisions through continuous monitoring.

Keywords: regional development, regional characteristics, territorial governance, differentiated approach, regional policy, infrastructure, institutional environment, sustainable development.

АННОТАЦИЯ. В статье раскрывается теоретическое значение учёта региональных особенностей при управлении социально-экономическим развитием территории. Систематизировано влияние природно-ресурсного потенциала, демографической структуры, отраслевой специализации, инфраструктуры, институциональной среды и экологических ограничений на территориальные управленческие решения. Обоснованы направления дифференциации регионов по управленческим потребностям, адаптации программ развития к местным возможностям и корректировки решений на основе мониторинга.

Ключевые слова: региональное развитие, региональные особенности, территориальное управление, дифференцированный подход, региональная политика, инфраструктура, институциональная среда, устойчивое развитие.

KIRISH

Hududiy rivojlanishni boshqarish milliy iqtisodiy siyosatni mahalliy sharoit, resurs va ehtiyojlar bilan uyg'unlashtiruvchi ko'p darajali jarayondir. Hududlar tabiiy resurslari, aholi tarkibi, iqtisodiy ixtisoslashuvi, bozor va infratuzilmaga yaqinligi hamda boshqaruv imkoniyatlari bo'yicha bir-biridan farq qilgani sababli bir xil boshqaruv chorasi barcha joyda bir xil natija bermaydi. Shuning uchun hududiy siyosatning samaradorligi umumiy maqsadlarni saqlagan holda ularni muayyan hudud sharoitiga moslashtirishga bog'liq.

Hududiy taraqqiyotga oid nazariyalarda iqtisodiy faollikning makonda notekis joylashuvi tabiiy jarayon sifatida izohlanadi. O'sish markazlari, kumulyativ sabablanish, markaz va periferiyaning o'zaro aloqasi hamda aglomeratsiya samaralari ayrim hududlarda ishlab chiqarish va investitsiyaning tezroq jamlanishiga olib keladi [4–7]. Bunday jarayon iqtisodiy faollikni kuchaytirishi bilan birga hududlararo tafovutni ham chuqurlashtirishi mumkin. Shu bois boshqaruv siyosati o'sish manbalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularning ijobiy ta'sirini chekka hududlarga yoyishga qaratilishi kerak.

Zamonaviy hududiy siyosatda "joyga yo'naltirilgan" yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv hududni faqat ma'muriy birlik sifatida emas, balki o'ziga xos resurslar, bilimlar, ijtimoiy aloqalar va institutsional imkoniyatlarga ega iqtisodiy makon sifatida talqin qiladi [8–10]. Natijada rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududning mavjud salohiyati, asosiy cheklovlari va aholi ehtiyojlari birgalikda hisobga olinadi.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini oshirish, hududlarning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va mahalliy hokimliklarning natijalar uchun mas'uliyatini kuchaytirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor

yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1; 2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-aprelda PQ-132-son "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi Qarorida nazarda tutilgan maqsadli dasturlar hududiy muammolarni manzilli hal etish, infratuzilma va tadbirkorlikni mahalliy sharoitga mos tarzda qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi [3].

Maqolaning maqsadi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda mintaqaviy xususiyatlarning o'rnini nazariy jihatdan yoritish, ularni boshqaruv qarorlariga aylantirish mexanizmlarini tizimlashtirish hamda hududlar uchun differensial yondashuv yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy rivojlanishning nazariy asoslari iqtisodiy faoliyatning makondagi joylashuvi va o'sish manbalarining hududlar bo'ylab tarqalishini izohlashdan boshlanadi. F. Perru iqtisodiy o'sish bir xil sur'atda va bir xil joyda kechmasligini, balki yetakchi korxona va tarmoqlar atrofida shakllanadigan o'sish qutblari orqali rivojlanishini ta'kidlagan [4]. Mazkur yondashuv hududiy boshqaruvda ustuvor faoliyat turlarini aniqlash, ular bilan bog'liq kooperatsiyani kengaytirish va ko'paytiruvchi iqtisodiy ta'sirni boshqa tarmoqlarga yoyish zarurligini ko'rsatadi.

G. Myrdalning kumulyativ sabablanish nazariyasiga ko'ra, dastlabki iqtisodiy ustunlik kapital, malakali mehnat va bozor imkoniyatlarini o'ziga jalb etib, hududning keyingi o'sishini tezlashtiradi. Ayni paytda resurslarning chekka hududlardan rivojlangan markazlar tomon ko'proq yo'nalishi hududiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin [5]. Demak, hududiy siyosat nafaqat yetakchi markazlarni qo'llab-quvvatlashi, balki ularning xizmat, investitsiya va bilim oqimlarini periferiyaga uzatadigan bog'lanishlarni ham rivojlantirishi lozim.

J. Fridman markaz va periferiya munosabatlarini mintaqaviy rivojlanishning asosiy tarkibiy jihati sifatida ko'rib, shaharlar tizimi, transport aloqalari va iqtisodiy qarorlarning hududiy tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratgan [6]. P. Krugman esa miqyos samarasi, bozor sig'imi va transport xarajatlari korxonalar hamda mehnat resurslarining muayyan markazlarda to'planishini rag'batlantirishini nazariy jihatdan asoslagan [7]. Ushbu yondashuvlar yirik markazlarning o'sishini cheklash emas, balki ularning boshqa hududlar bilan iqtisodiy bog'liqligini kuchaytirish muhimligini anglatadi.

M. Storper hududning raqobatbardoshligini faqat moddiy resurslar bilan emas, balki mahalliy bilim, ijtimoiy aloqalar, institutsional ishonch va korxonalararo hamkorlik bilan bog'laydi [8]. Bunday qarash hududiy boshqaruvda davlat, biznes, ta'lim va ilmiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va boshqaruv qarorlarini ochiq muhokama qilish zarurligini ko'rsatadi.

F. Barca, P. McCann va A. Rodríguez-Pose hududiy rivojlanishda joyga yo'naltirilgan siyosatni mahalliy bilim va imkoniyatlardan foydalanish, institutlarni mustahkamlash hamda tashqi va ichki resurslarni birlashtirish vositasi sifatida asoslaydi [9]. OECDning hududiy rivojlanish bo'yicha yondashuvi ham iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda farovonlik, xizmatlarga kirish, ekologik barqarorlik, raqamli bog'liqlik va boshqaruv sifatini o'zaro bog'liq holda baholashni tavsiya etadi [10].

Adabiyotlar tahlili hududni boshqarishda universal choralardan ko'ra mintaqaning o'ziga xos salohiyati va cheklovlarini hisobga oluvchi differensial yondashuv samaraliroq ekanini ko'rsatadi. Bunda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik, infratuzilma sifati, ekologik xavfsizlik va institutsional samaradorlik yagona tizimning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida ko'rilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy umumlashtirish va grafik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Hududiy rivojlanish nazariyalari hamda joyga yo'naltirilgan siyosat konsepsiyalari o'zaro taqqoslandi. Mintaqaviy xususiyatlar iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy, institutsional va ekologik yo'nalishlarda guruhlandi. Olingan nazariy xulosalar asosida hududiy boshqaruvning bosqichlari va differensial vositalari tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy boshqaruvning mintaqaviy xususiyatlari, avvalo, rivojlanishning boshlang'ich sharoitlari har bir hududda turlicha ekanida namoyon bo'ladi. Tabiiy resurslarga boy hududda qayta ishlash chuqurligi va resurs



tejamkorligi ustuvor bo'lsa, mehnat resurslari ko'p bo'lgan hududlarda bandlik va kasbiy malaka masalalari muhimroq ahamiyat kasb etadi. Yirik shaharlarda aglomeratsiya, transport tirbandligi va ekologik bosimni boshqarish zarur bo'lsa, chekka qishloq hududlarida asosiy infratuzilma va bozorga kirish masalalari asosiy cheklov bo'lishi mumkin.

Mintaqaviy xususiyatlarni boshqaruv qarorlarida hisobga olish uchun ularni faqat tavsiflash yetarli emas. Har bir xususiyat aniq diagnostika savoli, mos siyosat vositasi va kutiladigan natija bilan bog'lanishi lozim. Bunday yondashuv hududiy dasturlarni umumiy topshiriqlar yig'indisidan maqsadli va o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar tizimiga aylantiradi (1-jadval).

1-jadval

Hududiy rivojlanishni boshqarishda mintaqaviy xususiyatlarning nazariy tasnifi¹


Mintaqaviy xususiyat	Boshqaruvda hisobga olinadigan jihat	Ustuvor vositalar	Kutiladigan natija
Tabiiy-resurs xususiyati	Resurslarning miqdori, sifati va qayta tiklanish imkoniyati	Chuqur qayta ishlash, resurs tejamkorligi va ekologik me'yorlar	Mahalliy qo'shilgan qiymat va resurslardan oqilona foydalanish
Demografik va mehnat xususiyati	Aholining yosh tarkibi, migratsiya va malaka darajasi	Kasbiy tayyorlash, mehnat mobilligi va manzilli bandlik dasturlari	Bandlikning kengayishi va mehnat unumdorligining oshishi
Tarmoq ixtisoslashuvi	Yetakchi tarmoqlar va iqtisodiy qaramlik darajasi	Diversifikatsiya, qiymat zanjiri va kichik biznes kooperatsiyasi	Iqtisodiy barqarorlik va yangi faoliyat turlarining shakllanishi
Makoniyl va infratuzilmaviy xususiyat	Bozor, transport, energiya va raqamli tarmoqlarga kirish	Yo'l, elektr, suv, internet va logistika loyihalarini uyg'unlashtirish	Xarajatlarning kamayishi va investitsion jozibadorlikning ortishi
Investitsion-innovatsion xususiyat	Kapital, texnologiya va bilim manbalarining mavjudligi	Loyiha portfeli, davlat-xususiy sheriklik va universitet-biznes hamkorligi	Texnologik yangilanish va yuqori unumdor faoliyat turlari
Institutsional xususiyat	Mahalliy boshqaruv salohiyati va idoralararo hamkorlik	Vakolat, javobgarlik, KPI, ochiq ma'lumot va loyiha boshqaruvi	Qarorlar ijrosi va davlat xizmatlari sifatining yaxshilanishi
Ekologik va iqlimiy xususiyat	Suv, yer, emissiya va tabiiy xavflarning chegarasi	Yashil standartlar, moslashuv investitsiyasi va xavflarni boshqarish	Ekologik xavfsizlik va uzoq muddatli barqarorlik

Jadvaldan ko'rinadiki, mintaqaviy xususiyatlar bir-biridan ajralgan omillar emas. Masalan, infratuzilma sifati tarmoq ixtisoslashuvining samaradorligiga, demografik tarkib mehnat bozoriga, institutsional salohiyat esa investitsiya va dasturlar ijrosiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli boshqaruv qarori faqat bitta muammoni hal etishga emas, o'zaro bog'langan cheklovlarni bir vaqtning o'zida yumshatishga yo'naltirilishi kerak.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarish mintaqaning tabiiy-resurs, demografik, iqtisodiy, infratuzilmaviy va institutsional xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Ularni tizimli tahlil qilish hududning imkoniyatlari, muammolari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi, hududiy mutanosiblik va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (1-rasm).

1 Manba: Muallif tomonidan [4–10] manbalar asosida tuzilgan.

Hududiy xususiyatlarni boshqaruv qarorlariga aylantirishning konseptual tuzilmasi



1-rasm. Hududiy xususiyatlarni boshqaruv qarorlariga aylantirishning konseptual modeli²

Yuqoridagi rasmda hududning tabiiy, demografik, tarmoq, infratuzilmaviy, institutsional va ekologik xususiyatlari boshqaruv tizimiga kiruvchi axborot sifatida ifodalangan. Hududiy diyagnostika ushbu axborotni tahlil qiladi, maqsadli rejalashtirish ustuvor vazifalarni belgilaydi, resurslarni muvofiqlashtirish esa dastur va loyihalarning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Monitoring natijalari orqali boshqaruv vositalari qayta ko'rib chiqilib, iqtisodiy o'sish, bandlik, hududiy mutanosiblik va ekologik barqarorlikka yo'naltiriladi.

Hududiy rivojlanish dasturining samaradorligi faqat to'g'ri maqsad tanlashga emas, balki boshqaruv jarayonining uzluksizligiga ham bog'liq. Diyagnostika, rejalashtirish, loyihalash, amalga oshirish va baholash bosqichlaridan birining sust ishlashi butun dastur natijasini pasaytiradi. Shuning uchun hududiy boshqaruv davriy qayta aloqa tamoyiliga asoslangan sikl sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish bosqichlari³

Boshqaruv bosqichi	Asosiy mazmuni	Boshqaruv natijasi
Hududiy diyagnostika	Salohiyat, muammo, cheklov va manfaatdor tomonlarni aniqlash	Hududning rivojlanish profili va muammolar xaritasi
Maqsadlarni belgilash	Ustuvor yo'nalishlarni uzoq va o'rta muddatli vazifalar bilan bog'lash	Aniq, o'lchanadigan va hududga mos maqsadlar
Dastur va loyihalarni shakllantirish	Chora-tadbirlar, resurslar, muddat va mas'ullarni uyg'unlashtirish	Bir-birini to'ldiruvchi loyiha portfeli
Amalga oshirish	Davlat, biznes, ta'lim, ilm-fan va jamoatchilik hamkorligini muvofiqlashtirish	Resurslardan samarali foydalanish va ijro intizomi
Monitoring va baholash	Jarayon, natija va ijtimoiy ta'sirni muntazam kuzatish	Muammo va og'ishlarni erta aniqlash
Tuzatish va qayta rejalashtirish	Baholash natijalariga ko'ra vosita va resurslarni qayta taqsimlash	Moslashuvchan va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv

Jadval ma'lumotlari hududlarni boshqarishda yagona yondashuvdan foydalanish yetarli emasligini ko'rsatadi. Har bir hududning resurs salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi, infratuzilma darajasi va ijtimoiy muammolaridan kelib chiqib, differensial boshqaruv choralarini belgilash zarur. Bunday yondashuv mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, rivojlanishdagi cheklovlarni kamaytirish va resurslarni manzilli yo'naltirishga xizmat qiladi. Natijada hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish hamda muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyati, ixtisoslashuvi, infratuzilma darajasi va mavjud muammolari bir-biridan farq qilgani sababli ularni yagona boshqaruv usuli asosida rivojlantirish yetarli natija bermaydi. Shu bois har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni tegishli guruhlariga ajratish va mos boshqaruv choralarini


² Manba: Muallif ishlanmasi.

³ Manba: Muallif ishlanmasi.



belgilash muhim ahamiyatga ega (2-rasm).

Mintaqaviy xususiyatlarga mos differensial boshqaruv modeli



2-rasm. Mintaqaviy xususiyatlarga mos differensial boshqaruv modeli⁴

Yuqoridagi rasmda hududlarning iqtisodiy salohiyati, ixtisoslashuvi, infratuzilma darajasi va mavjud muammolaridan kelib chiqib, ularga mos differensial boshqaruv yondashuvlarini belgilash mexanizmi ifodalangan. Ushbu yondashuv hududning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va tegishli boshqaruv vositalarini tanlash imkonini beradi. Natijada resurslarni manzilli taqsimlash, hududiy muammolarni aniq chora-tadbirlar asosida hal etish va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Mintaqaviy farqlar hududlar uchun bir xil ustuvorlik va boshqaruv vositalarini belgilash imkonini cheklaydi. Shu bois hududlarni faqat "yuqori" yoki "past" rivojlangan guruhlariga ajratishdan ko'ra, ularning boshqaruv ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiluvchi funksional tasnifdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday tasnif hududning yetakchi salohiyati, asosiy muammolari va iqtisodiy aloqalarining xususiyatlariga asoslanadi (3-jadval).

3-jadval

Hududlar tipologiyasi va differensial boshqaruv yo'nalishlari⁵

Hudud turi	Asosiy xususiyati	Differensial boshqaruv yo'nalishi
Resursga ixtisoslashgan hudud	Xomashyo bazasi kuchli, iqtisodiy tarkib tor bo'lishi mumkin	Chuqur qayta ishlash, mahalliy qiymat zanjiri, resurs tejamlorligi va ekologik nazorat
Sanoatlashgan va urbanizatsiya darajasi yuqori hudud	Ishlab chiqarish va aholi yirik markazlarda jamlangan	Texnologik yangilanish, aglomeratsiya, transport, uy-joy va ekologik yuklamani boshqarish
Agrar va qishloq hududi	Bandlik qishloq xo'jaligiga bog'liq, bozor va xizmatlarga kirish cheklangan	Kooperatsiya, irrigatsiya, qayta ishlash, saqlash, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish va qishloq infratuzilmasi
Xizmat va logistika hududi	Transport yo'llari, turizm yoki savdo xizmatlari uchun qulay joylashuv	Logistika markazlari, raqamli xizmatlar, turizm infratuzilmasi va tadbirkorlik muhiti
Rivojlanish salohiyati to'liq ro'yobga chiqmagan chekka hudud	Asosiy infratuzilma, kapital va malaka yetishmovchiligi mavjud	Inson kapitali, yo'l va kommunal tarmoqlar, manzilli investitsiya hamda vaqtinchalik rag'batlar

Jadvalda hududlarning o'ziga xos salohiyati, rivojlanish darajasi va mavjud cheklovlariga mos boshqaruv yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Ushbu yondashuv resurslarni ustuvor vazifalarga manzilli yo'naltirish, hududiy muammolarni aniq mexanizmlar asosida hal etish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada

4 Manba: Muallif ishlanmasi.

5 Manba: Muallif tomonidan [8–10] manbalar asosida tuzilgan.

hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar qisqarib, muvozanatli va barqaror rivojlanish uchun zarur sharoit shakllanadi.

Hududiy dasturlarda resurslarni taqsimlashdan oldin maqsadlar o'rtasidagi muvozanat ham hisobga olinishi zarur. Faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan siyosat bandlik, daromad va ekologik barqarorlikni avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Shu sababli iqtisodiy natija, ijtimoiy ta'sir, infratuzilmaning yaxshilanishi, ekologik xavfsizlik va boshqaruv sifati o'zaro bog'liq mezonlar sifatida ko'rib chiqilishi lozim [8–10].

Nazariy tahlil hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishning mintaqaviy xususiyatlari uch asosiy tamoyilga tayanishini ko'rsatadi. Birinchidan, qarorlar hududiy diagnostikaga asoslanishi kerak. Ikkinchidan, umumiy siyosat vositalari hududning boshqaruv ehtiyojiga qarab farqlanishi lozim. Uchinchidan, monitoring natijalari dastur va loyihalarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish uchun ishlatilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish hududiy siyosatning manzilliligi va natijadorligini oshiradi. Tabiiy-resurs salohiyati, demografik holat, tarmoq ixtisoslashuvi, infratuzilma, institutsional muhit va ekologik cheklovlar hududning rivojlanish imkoniyati hamda boshqaruv vositalarini belgilovchi o'zaro bog'liq omillardir. Shu bois hududlarni yagona mezon asosida baholash yoki barcha hududlarga bir xil chora qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Nazariy yondashuvlar hududiy rivojlanishning markazlarda to'planishi tabiiy jarayon ekanini, biroq boshqaruv siyosati bu jarayonning ijobiy ta'sirini boshqa hududlarga uzatishi zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun transport va iqtisodiy bog'lanishlarni kuchaytirish, mahalliy qiymat zanjirlarini rivojlantirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va mahalliy institutlarning salohiyatini oshirish muhimdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, hududiy rivojlanishni boshqarishda quyidagi yo'nalishlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- har bir hududning salohiyati, cheklovlari va ustuvor muammolarini qamrab oladigan muntazam hududiy diagnostika tizimini shakllantirish;
- hududlarni faqat iqtisodiy natijasi bo'yicha emas, balki boshqaruv ehtiyojlari va funksional xususiyatlari bo'yicha tipologiyalash;
- hududiy dasturlarda maqsad, loyiha, moliyalashtirish manbasi, mas'ul ijrochi va kutiladigan natija o'rtasidagi bog'liqlikni aniq belgilash;
- markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, biznes, ta'lim, ilmiy tashkilotlar hamda jamoatchilik o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini mustahkamlash;
- hudud turiga mos differensial vositalardan foydalanish: rivojlangan markazlarda unumdorlik va ekologik boshqaruvni, agrar va chekka hududlarda esa infratuzilma, inson kapitali va bozorga kirishni ustuvorlashtirish;
- monitoring va baholash natijalarini hududiy dasturlarni tuzatish, resurslarni qayta yo'naltirish va kutilgan natijani bermayotgan loyihalarni qayta ko'rib chiqish uchun qo'llash.

Mazkur yo'nalishlarning izchil qo'llanishi hududiy boshqaruvni faqat resurslarni taqsimlash amaliyotidan mahalliy salohiyatdan samarali foydalanishga, muammolarni manzilli hal etishga va erishilgan natijalar asosida muntazam takomillashib borishga yo'naltirilgan tizimga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2026-yil 16-fevral, PF-21-son. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 20-dekabr, PF-223-son. <https://lex.uz/ru/docs/-7271094>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi Qarori, 2025-yil 1-aprel, PQ-132-son. <https://lex.uz/uz/docs/7409817>
4. Perroux, F. Note sur la notion de «pôle de croissance» / F. Perroux // Économie appliquée. – 1955. – Vol. 8, no. 1–2. – P. 307–320. – DOI 10.3406/ecoap.1955.2522.
5. Myrdal, G. Economic Theory and Under-developed Regions / G. Myrdal. – London : Gerald Duckworth, 1957. – 167 p.
6. Friedmann, J. Regional Development Policy: A Case Study of Venezuela / J. Friedmann. – Cambridge, MA : MIT Press, 1966. – 279 p.
7. Krugman, P. Increasing Returns and Economic Geography / P. Krugman // Journal of Political Economy. – 1991. – Vol. 99, no. 3. – P. 483–499. – DOI 10.1086/261763.
8. Storper, M. The Regional World: Territorial Development in a Global Economy / M. Storper. – New York : Guilford Press, 1997. – 338 p.



9. Barca, F. The Case for Regional Development Intervention: Place-Based Versus Place-Neutral Approaches / F. Barca, P. McCann, A. Rodríguez-Pose // Journal of Regional Science. – 2012. – Vol. 52, no. 1. – P. 134–152. – DOI 10.1111/j.1467-9787.2011.00756.x.
10. OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 154 p. – DOI 10.1787/92cd40a0-en.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100